

## **ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA YURIDIK TA'MINLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI**

G'ULOMJONOV MUHAMMADJON ABDURAHMON O'G'LI

### **Annottatsiya**

Ushbu maqolada Ichki ishlar organlarida yuridik ta'minlash faoliyatini takomillashtirishga oid ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, xususan, Yuridik ta'minlash faoliyatining predmeti, tizimi, vazifalari, maqsadi normativ hujjatlarning turli shakl va mazmundagi axborot manbalari bilan ishlash, Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonuniylikni yanada mustahkamlash, demokratik va huquqiy islohotlarni amalga oshirishda yuridik xizmatlarning roli va javobgarligini izchillik bilan kuchaytirish, Ichki ishlar organlarida yuridik ta'minlash faoliyati asosida olib borilayotgan ish faoliyatini va amaliyotini o'zlashtirishga mo'ljallangan.

### **Annotation**

This article provides information on the improvement of legal enforcement activities in internal affairs bodies, in particular, the subject, system, tasks, and purpose of legal enforcement activities are working with information sources of various forms and contents of regulatory documents, further strengthening of legality in the activities of state bodies and organizations, democratic and legal reforms. It is intended to consistently strengthen the role and responsibility of legal services in the implementation, to master the work and practice of the internal affairs bodies on the basis of legal support activities.

Kalit so'zlar: yuridik ta'minlash, huquqiy tahlil, shartnomaviy-huquqiy faoliyat, normativ-huquqiy hujjat, yuridik ta'minlash bo'linmalari, normativ-huquqiy hujjat loyihasining ekspertizasi, normativ-huquqiy hujjat loyihasining huquqiy ekspertizasi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat

va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish maqsadida birinchidan, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, ikkinchidan, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, uchinchidan, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, to'rtinchidan, ijtimoiy sohani rivojlantirish, va beshinchidan



xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdaqi tashqi siyosat yuritish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish belgilab olindi<sup>4</sup>. Ushbu maqsaddan kelib chiqib ichki ishlar organlarida boshqaruv asoslari fanini o'rgatish kursantlarga Boshqaruvning mohiyati, maqsadi va vazifalari, ijtimoiy boshqaruvning, shu jumladan uning alohida tarmog'i bo'lgan ichki ishlar organlaridagi boshqaruv tizimining mohiyati va prinsiplari, uni amalga oshirish usullarini, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish asosida ichki ishlar organlarida boshqaruvni tashkil etish jarayoni, kadrlar bilan ishlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ish yuritish masalalari, mehnatni ilmiy tashkil etish, maxsus sharoitlarda ichki ishlar organlarining kuch va vositalarini boshqarish hamda boshqaruv faoliyatini axborot bilan ta'minlashning asosiy qoidalarini o'rgatishni nazarda tutadi.

Ichki ishlar organlarining yuridik ta'minlash faoliyatining o'rganishdan maqsad – davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash jarayonida ichki ishlar organlari tizimida boshqaruv faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun, quyidagi asosiy vazifalar belgilanadi:

Ichki ishlar organlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda chuqur bilimga ega bo'lgan axborot-tahlil va yuridik ta'minlash ishlarini yaxshi biladigan ichki ishlar organi xodimlarini tayyorlash;

– fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;

– shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bilim

va ko'nikmalarni shakllantirish;

– huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta'minlashda ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mohiyati, ijtimoiy ahamiyati va ulardan ko'zlangan maqsadlar haqidagi bilimlarni va ko'nikmalarni shakllantirish;



- ichki ishlar organlarida yuridik ta'minlash va boshqaruv nazariyasining asosiy qoidalarini, usullarini va ichki ishlar organlarini boshqarish amaliyotini o'rgatish, bu borada bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
- ichki ishlar organlarida yuridik ta'minlash borasida axborotlarni yig'ish va tahlil qilish, qarorlar tayyorlash, qabul qilish hamda ularning ijrosini tashkil qilish bo'yicha ko'nikma va qobiliyatni shakllantirish;
- ish usullarini va ularni hayotga tatbiq qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish;
- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va xizmat hujjatlarini tuzish va ularni rasmiylashtirish qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan o'rgatish;
- ichki ishlar organlari xizmat va apparatlarida mehnatni ilmiy tashkil etish asoslarini o'rgatish;
- maxsus sharoitlarda ichki ishlar organlarining kuch va vositalarini boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston ichki ishlar vazirligining barcha tizimlarida bugunlik kunda ish faoliyatlarini to'g'ri boshqarishda normativ hujjatlarni ishlab chiqishda, respublikada kriminogen vaziyatni tizimli tahlil va prognoz qilish asosida ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirish, ular faoliyati samaradorligini tahlil qilish va baholash, kompleks tekshirish, ichki ishlar organlarining huquqni qo'llash amaliyotida yagona huquqiy siyosat va nazoratni tashkil etish, qonun hujjatlarining o'z vaqtida, bir xilda va to'liq bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, samarali ish yuritish va hujjatlar aylanishini hamda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash tizimini yo'lga qo'yish, shuningdek ichki ishlar organlarining normativ huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishdagi tashkiliy bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish funksiyalarini amalga oshiruvchi ijtimoiy munosabatlar ushbu maqolaning predmeti hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarida yuridik ta'minlash boshqaruv organi bo'lib, ichki ishlar vazirligi tuzilmalarida asosiy vazifalarni echishda ishlab chiqilgan normativ hujjatlarni qonuniyligini ta'minlovchi qarorlar qabul qiluvchi tuzilma hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarida qabul qilinayotgan normativ huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmon

va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlariga va Ichki ishlar vazirining buyruq va farmoyishlariga mos kelishini ichki ishlar organlarining barcha kuch vositalarini maqsadli jalb etgan holda huquqbuzarliklarni va jinoyatni oldini olish borasida va



jamoat xavfsizligi ta'minlashda to'g'ri qarorlar qabul qilishda va uning ijrosini ta'minlashda qonuniylikni ta'minlashdan iboratdir.

Ichki ishlar vazirligi Tashkiliy Departamenti Yuridik Boshqarmasi

va ularning hududiy bo'limlari ichki ishlar organlarining barcha sohaviy xizmatlariga to'g'ri normativ hujjatlarni va boshqaruv qarorlarini qabul qilishida, yagona yo'l xaritasi asosida faoliyat olib borishida har tomonlama yordam ko'rsatadi va ular tomonida axborot-tahlil faoliyatini to'g'ri amalga oshirishida amaliy yordam ko'rsatadi.

Tashkiliy Departamentning Yuridik ta'minlash Boshqarmasi o'z faoliyatidagi doir masalalar bo'yicha o'rnatilgan tartibda ichki ishlar organlarining boshqa bo'linmalari, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonuniylikni yanada mustahkamlash, demokratik va huquqiy islohotlarni amalga oshirishda yuridik xizmatlarning roli va javobgarligini izchillik bilan kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 yanvardagi "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PQ-2733-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

davlat organlari va tashkilotlarining huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilayotgan (qabul qilinayotgan) normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish;

davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash masalalarida ularning tarkibiy tuzilmalari ishini muvofiqlashtirish;

davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining huquqiy madaniyati

va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali etkazishda ishtirok etish;



shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, davlat organlari va tashkilotlarining mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash.

Mamlakatimizda ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish, ularning quyi bo'g'inlarini aholiga yanada yaqinlashtirgan holda mustahkamlash, barcha darajadagi tuzilmalarning vazifalari va funksiyalarini aniq belgilash, zamonaviy xavf-xatarlarni hisobga olgan holda kuch va vositalarni oqilona taqsimlashga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasini, turlarini, ushbu hujjatlarning o'zaro yuridik kuchi va nisbatini belgilash, shuningdek ularni rejalashtirish, tashabbus qilish, tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish, kelishish, qabul qilish, e'lon qilish, ularning ijrosini tashkil etishni ta'minlash sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida 2021 yil 20 apreldagi O'RQ-682-son Qonuni bilan tartibga solinadi.

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida normativ-huquqiy hujjat tushunchasi berilgan bo'lib unga ko'ra, normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjat (shuningdek, Romani-Germaniya huquqiy tizimiga ega bo'lgan boshqa ko'plab mamlakatlarda) huquqning asosiy, ustun manbai hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjatlar (boshqa huquq manbalaridan farqli o'laroq) faqat vakolatli davlat organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida qabul qilinadi, ma'lum shaklga ega

va hujjatli shaklda rasmiylashtiriladi (bundan tashqari, ular yuridik texnika qoidalariga muvofiq tuziladi). Mamlakatda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar yagona tizimni tashkil etadi. O'zbekistondagi eng yuqori normativ-huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir.

Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining turlari va o'zaro nisbati, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash tartibiga hamda ularning mazmuniga qo'yiladigan asosiy talablar



va ijrosini tashkil etishni ta'minlash Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchiligi bilan ham belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish, e'lon qilish, ro'yxatdan o'tkazish va saqlash tartibi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilanadi.

Yuridik ta'minlash faoliyatini ichki ishlar organlarida to'g'ri tashkil etilishi natijasida ichki ishlar organlarida kuch vositalarni nazoratini tashkil etish va voqea-hodisalarni o'z vaqtida ro'yxatga olish va kuch vositalarni maqsadli jalb etish yo'lga qo'yish bilan fuqarolarni osoyishtaligini ta'minlash borasidagi boshqaruv qarorlarini to'g'ri qabul qilishida muhim hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Ichki ishlar organlarida boshqaruv nazariyasi: Darslik / I. Ismailov, D.S.Muxamadaliyev, E.U.Azizov; mas'ul muharrir B. A. Matlyubov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 264 b.

Ichki ishlar organlarida boshqaruv va axborot-tahlil faoliyati asoslari: Darslik / I.Ismailov, D.S.Muxamadaliyev, E.U.Azizov; mas'ul muharrir B.A. Matlyubov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 561 b.

Ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ishlashni tashkil etish: Darslik // I.Ismailov, B.I.Egamberdiev, M.B.Komilov; Mas'ul muharrir B.A.Matlyubov.– T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 214 b.

Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini boshqarish: Darslik // I.Ismailov va boshq. – T.: B.A.Matlyubovning umumiy tahriri ostida. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 448 b.

Qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlash prinsipi – ichki ishlar organlari faoliyatining asosi: Monografiya / O'. X.Muxamedov, I.Ismailov, B.E. Zakirov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 245 b.

Axborot-tahlil faoliyati asoslari: O'quv qo'llanma / Ismailov I., Ziyodullaev M.Z. va boshq. – T., 2015. – 78 b.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.,2008.– 176 b.

Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017. 485-b.

31.10.2024, UNITED KINGDOM

<https://conferencea.one>

Mirziyoev Sh.M. – Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2021. - 464 b.

Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qattiq tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak / Sh.M.Mirzaev; – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. 104-b.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. □ T., 2017. – 72 b .

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi 2014 yil 5 maydagi qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2014. – № 19 (623). – 209-m.

O‘zbekiston Respublikasining «Parlament nazorati to‘g‘risida»gi 2016 yil

11 vaprel qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2016.